

## ARABIY VA FORSIY IZOFALAR VA ULARNING BADIY ASARLAR TILIDA QO'LLANILISH O'RINLARI (ALISHER NAVOIY ASARLARI MISOLIDA)

Suxanberdiyeva Sitora Sanjar qizi

*Nizomiy nomidagi TDPU talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada arab grafikasiga asoslangan eski o'zbek yozuvidagi arabiy va forsiy izofalarning izohi va ularning badiiy asarlar tilida qo'llanilish o'rinlari xususida so'z yuritilgan. Nazariy ma'lumotlar Alisher Navoiy asarlaridan keltirilgan misollar bilan asoslangan.*

**Kalit so'zlar:** *Alisher Navoiy, arab izofasi, fors izofasi, lug'aviy ma'no, badiiy asar tili, aniqlovchi, aniqlanmish, qaratqich, qaralmish, yozma yodgorliklar, grammatik vosita.*

*“Mustaqillik yillarida xalqimizning qadimiy tarixi va boy madaniyatini tiklash, buyuk allomalarimiz, aziz-avliyolarimizning ilmiy, diniy va ma'naviy merosini har tomonlama chuqur o'rganish va targ'ib etish, muqaddas qadamjolarini obod qilish, yosh avlodni ularning ezgu an'analari ruhida tarbiyalash bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirildi va izchil davom ettirilmoqda<sup>40</sup>”.*

*Sh.M.Mirziyoyev*

Izofa so'zinig lug'aviy ma'nosi qo'shish va bog'lash demakdir. Aniqlanmish va aniqlovchi, qaralmish va qaratqich munosabatlarini ifodalovchi tushuncha izofa deb ataladi<sup>41</sup>.

Eski o'zbek yozuvi yodgorliklari tilida arab izofali birikmalarga qaraganda forsiy izofali birikmalar juda ko'p. Ular yozma yodgorliklar tiliga qo'shnichilik va qardoshlik aloqalari yusinida shunchaki kirib qolgan emas, balki jonli grammatik vosita sifatida tilda muhim vazifa bajargan.

Ma'lumki, arab va fors izofalari mohiyat e'tibori bilan hamda so'z tartibi jixatidan o'zbek tiliga teskari. O'zbek tilida oldin aniqlovchi, so'ngra aniqlanmish kelsa, arab va fors tillarida aksincha holatni ko'ramiz. Forsiy izofali birikmalarning ba'zilari hozir ham adabiy tilimizda, shuningdek, xalq jonli so'zlashuv nutqida mavjud, ular asrlar mobaynida tilga butunlay singishib ketgan.

Fors tilida izofa aniqlanmish bilan aniqlovchi o'rtasidagi munosabatni ifodalovchi *i* (ع) tovushiga izofa deyiladi. Hozirgi zamon o'zbek tilida ko'plab

<sup>40</sup> Mirziyoyev Sh.M. “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori.-T., 2017-yil, 24 –may.

<sup>41</sup> Jumaniyozov R.Eski o'zbek yozuvi. -Toshkent, 1989.\_-B.129.

izofali birikmalar uchraydi. Ammo klassik adabiy tilimizda izofali birikma jonli grammatik birikma sifatida keng tarqalgan edi. Klassik adabiy tilimizda yozilgan yodgorliklarni, badiiy asarlarni o'qib, tushunib olish uchun boshqa bir qator talablar bilan birga fors-tojik izofasini ham jonli grammatik shakl sifatida bilib olish kerak bo'ladi. Fors-tojik izofasini o'rganishning bir qator murakkablik tomonlari bor. Bular quyidagilar:

1) Izofali birikma tarkibidagi so'zlarning tartibi o'zbek tilidagidek emas. Bunday birikmada aniqlanmish oldin keladi, aniqlovchi esa keyin keladi. O'zbek tilida avval aniqlovchi, so'ngra aniqlanmish keladi.

2) Eski o'zbek yozuvida aksariyat hollarda fors izofasi aks ettirilmaydi, ya'ni izofa yozuvda ko'pincha biror bir belgi bilan ko'rsatilmaydi.

Fors izofali birliklarida aniqlanmish qanday tovush bilan tugallanganligiga qarab, izofa bir necha fonetik holatlarga ega bo'ladi. Izofa ko'rsatkichi *ى* (e, (i), yo harfi) hisoblanadi. Fors tili izofa ko'rsatkichi yozuvda har doim ifodalanmaydi, lekin talaffuzda har doim ifodalanadi. Uning yozuvda ifodalanishi quyidagi ko'rinishlarga ega:

a) Agarda aniqlanmish ma'nosida kelayotgan so'zning oxiri undosh bilan tugasa izofa ko'rsatkichi *ى* yozuvda aks etmaydi, lekin *i* aslida *e* talaffuz qilinadi. Masalan:

مردكار -mardikor

مرد ميدان<sup>42</sup> -mardi maydon

تخت روان - taxtiravon

درد سر -dardisar

b) Agarda aniqlanmish ma'nosida kelayotgan so'zning oxiri *a* unli tovushi bilan tugallangan bo'lsa, izofa *ء* **hamza** belgisi orqali ifoda etilib, *i* tarzida talaffuz qilinadi. **Hamza** belgisi yozuvda tushub qoladi.

نقطه نظر -nuqtai nazar

ترجمه حال -tarjimai hol

آيينه جهان - oynai jahon

والده محترمه -validai muhtarama

v) Agarda aniqlanmish ma'nosida kelayotgan so'zning oxiri *o*, *u* unli tovushlaridan biriga tugallangan bo'lsa, izofa *ى* -yo harfi orqali ifoda etilib, *i* tarzida talaffuz qilinadi.

روى زمين -ro'yi zamin

روى سياه - ro'yi-siyoh

بخاراى شريف -Buxoroi sharif

روى راست - ro'yi-rost

Shuningdek,

<sup>42</sup> Jumaniyozov R. Eski o'zbek yozuvi. -Toshkent, 1989.-B.133.

*Ki bo'lsun bori umridin bahramand,  
Alardin dag'i xisravi arjumand<sup>43</sup>.*

(477-bet)

*Hamul gavharim bordurur necha pand,  
Bu paymona ham nuktai sudmand.*

(489-bet)

*Bori shohlar sarfarozi bil,  
Skandarsifat Shohi G'oziy bil.*

(476-bet)

*Ki: "Xush kelding, ey mehmoni aziz,  
Ki qurboning ushbu ushbu qarig'on kaniz!*

(464-bet)

*Anga qilmadi davri gardun vafo,  
Jafo birla ham qilmadi iktifo.*

(453-bet)

baytlardagi "*xisravi arjumand*", "*nuktai sudmand*", "*Shohi G'oziy*", "*mehmoni aziz*", "*davri gardun*" kabi misolar yuqoridagi fikrimizni dalillaydi.

Yana quyidagi:

طالب صادق تايبيلماس يوقسه كيم قويدى قدم

يولغاكيم اول قدم معشوقى اوترو كيلمادى<sup>44</sup>

baytlarda keltirilgan "*طالب صادق*" "*tolibi sodiq*", "*معشوقى اوترو*" "*ma'shuqu o'tru*" izofali birikmalar shular jumlasidandir.

Arab izofasidagi so'zlarning tartibi ham xuddi fors-tojik tilidagi singaridir, ya'ni arab tilida ham aniqlanmish avval keladi, aniqlovchi esa keyin keladi. Eski adabiy tilimizda arab izofali birikmalari forscha birikmalariga qaraganda ancha kam. Arab izofasining ko'rsatkichi *-ul (al)*dir. Arab izofasi ko'rsatkichi yozuvda hamma vaqt ifodalanadi, lekin talaffuzda har doim ham *ul* tarzida o'qilavermaydi. Unig talaffuz qilinishi izofa ko'rsatkichidan keyingi kelayotgan harfga bog'liq bo'ladi. Arab alifbosidagi harflar o'z tabiatiga ko'ra ikkita guruhga ajratiladi:

1. *حروف القمرى ho'ruf-ul qamar* (oy harflari)

2. *حروف الشمسى ho'ruf-ush shams* (quyosh harflari)

a) quyidagi 14 harf *حروف الشمسى ho'ruf-ush shams* deyiladi:

ت ث د ذ ر ز س ش ص ض ط ظ ن

b) quyidagi 14 harf *حروف القمرى ho'ruf-ul qamar* (oy harflari) deyiladi.

ا ب ج ح خ ع غ ف ق ك م و ه ي

Agar arab izofasi *al* (ال) aniqlik artiklidan keyin kelgan so'zning birinchi harfi quyosh harflaridan ت ث د ذ ر ز س ش ص ض ط ظ ن

<sup>43</sup> Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. -Toshkent, 1991. -B.477.

<sup>44</sup> Is'hoqov F. Eski o'zbek tili va yozuvi. -T., 1995. -B.29.

(حروف الشمسى *ho'ruf-ush shams*) biri bilan boshlansa, *al* artiklidagi ل lom talaffuz etilmay, undan keyingi harf tashdid bilan o'qiladi.

لسان الطير -45 "Lison ut tayr"

نوادير الشباب – "Navodirush-shabob"

مجالس النفايس – "Majolisun-nafois"

Agar arab izofasi *al* aniqlik artiklidan keyin kelgan so'zning birinchi harfi oy harflaridan ا ب ج ح خ ع غ ف ق ك م و ه ي Agar ال *al* artiklidan keyin kelgan so'z حروف القمرى *ho'ruf-ul qamari* "oy harflari" guruhsidagi harflarning biri bilan boshlansa, ال *al* artikli *ul* yoki *al* birikmalari tarzida talaffuz qilinadi. Izofa ko'rsatkichi ustiga vasla belgisi qo'yiladi, bu belgi zo'zlarning bir-biriga bog'lanayotgaligini bildiradi. Manbalarda yozuvda ko'pincha *vasla* belgisi tushib qoladi va alifning o'zi yozilib, *vasla* borligiga ishora qiladi.

حيرت الابرار – "Hayratul abror"

محبوب القلوب – "Mahbubul qulub"

فوايد الكبر – "Favoidul kibor"

خمست المتخيرين – "Xamsatul mutaxayyirin"

ميزان الاوزان – "Mezonul avzon"

محكمة اللغتين – "Muhokamatu-l-lug'atayin"

Arab izofali birikmalar badiiy asarlar tilida juda ko'p qo'llanilgan. Biz quyida Alisher Navoiy asarlaridan keltirilgan misollar bilan yuqoridagi fikrlarimizni dalillaymiz:

*Chu otlandi rokib, nechukkim daraxsh,  
Burun surdi Baytul-xaram uzra raxsh*<sup>46</sup>.

(27-bet)

*Magar bo'ldi Ruhul-quds hamrahi,  
Va yo keldi anfosi Ruhullahi.*

(42-bet)

*Qilib haq ani sayyidal-mursalin,  
Risalat uza bo'ldi masnadrishin.*

(69-bet)

*Vale ulcha bergaylar andin xabar,  
"Nizomut-tavorix" erur mo'tabar.*

(70-bet)

*Bihamdilillah, iqbol o'lub korsoz,  
Bu tug'ro bayozig'a chektim tiroz.*

(476-bet)

<sup>45</sup> Is'hoqov F. Eski o'zbek tili va yozuvi. -T., 1995. -B.27.

<sup>46</sup> Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. -Toshkent, 1991. -B.27.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, eski o'zbek tilining sintaktirk qurilishida ham alohida e'tibor bilan o'rganish lozim bo'lgan jihatlar ko'p. Fors-tojik tilidan, qisman (arabchadan) o'tib qolgan yoki bevosita uning ta'sirida shakllangan sintaktik aloqalar teng va tobe birikma ko'rinishlari<sup>47</sup>, ya'ni *izofali birikmalar* ana shular jumlasidandir.

Bugungi voqeligimiz, hayotning taraqqiyot oqimi o'tmish merosimizni har tomonlama o'rganishni taqozo etmoqda. Bu esa oldimizga o'tmish merosimizni atroflicha egallash bilan bog'liq muammolarni tezda hal etish vazifasini ko'ndalang qilib qo'yadi<sup>48</sup>. Kelajak avlod oldida turgan muhim vazifalardan biri, ma'naviy merosimizni o'rganish, tadqiq etish, uning ilg'or g'oyalarini keng xalq ommasiga yetkazish uchun eski o'zbek tili, ya'ni arab grafikasiga asoslangan eski o'zbek yozuvini va u bilan bog'liq grammatik qonun-qoidalarni batafsil o'zlashtirishdan iboratdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.-T., 2017-yil, 24 –may.
2. Abdullayev F., Shermuhammedov T., Xalilov L., Xalilov A. O'qish kitobi. -Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti, 1994 y.
3. Ashirboyev S., Azimov I., Rahmatov M., G'oziev A. Eski o'zbek tili va yozuvi praktikumi. -Toshkent: "Ijod" nashriyoti, 2006 y.
4. Is'hoqov F. Eski o'zbek tili va yozuvi. -Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti, 1995 y.
5. Jumaniyozov R. Eski o'zbek yozuvi. -T., 1989.
6. Egamova Sh., Ubaydullayev A., Abdujabbarova F. Eski o'zbek yozuvi (O'quv qo'llanma).-T.: "Mumtoz so'z", 2021. -309 b.
7. A'zamxonov S.X Ta'lim jarayonida o'qituvchi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali <https://bestpublication.org/index.php/ozf/article/view/1313>
8. A'zamxonov S.X Inson kapitali bilan bog'liq tushunchalarning nazariy tahlili 247-254 -b <https://interonconf.org/index.php/den/article/view/2533>

<sup>47</sup> Is'hoqov F. Eski o'zbek tili va yozuvi. -Toshkent, 1995. -B.26.

<sup>48</sup> Jumaniyozov R. Eski o'zbek yozuvi. -Toshkent, 1989. -B. 7.

9. Bahodir o'g'li I. M. Yoshlarning Ijtimoiy Faolligini Oshirish Jamiyat Rivojlanishining Omili Sifatida //Miasto Przyszłości. – 2022. – Т. 24. – С. 521-523.
10. Аликариев Н.С., Аликариева А.Н. Олий таълим сифати менежменти тизимини ривожлантириш концепцияси//“Социология фанлари” (www.tadqiqot.uz\soci) электрон журнали. №1. – Тошкент, 2020. – Б. 7-18. DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2020-1/>